

KONFLIKTLAR TUSHUNCHASI

ПОНЯТИЕ КОНФЛИКТОВ

THE CONCEPT OF CONFLICTS

Normatjonova Odinaxon Shuxratbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotation

Ushbu maqolada konflik tushunchasini o’rganish to’g’risida so’z boradi. Zamonaviy ilm-fan insoniyatning tarixiy yutuqlariga e’tibor qaratganda, konflikt doimo ijtimoiy taraqqiyotning doimiy hamrohi ekanligiga shubha yo’q, chunki konfliktlar hamma joyda mayjud va bundan keyin ham mayjud bo’ladi. Konfliktlarning ijtimoiy hayotdagi o’tni va ularning keng tarqalishi uzoq vaqt davomida e’tiborni tortdi.

Annotation

Данная статья посвящена изучению природы конфликтов и социальных конфликтов. Когда современная наука обращает внимание на исторические достижения человечества, не подлежит сомнению, что конфликты всегда являются постоянным спутником общественного развития, поскольку конфликты существуют повсюду и будут существовать. Роль конфликтов в общественной жизни и их широкое распространение давно привлекают внимание.

Abstract

This article deals with studying the nature of conflicts and social conflicts. When modern science focuses on the historical achievements of mankind, there is no doubt that conflict is always a constant companion of social development, because conflicts exist everywhere and will continue to exist. The role of conflicts in social life and their wide distribution have attracted attention for a long time.

Kalit so’zlar

Konflikt, ziddiyat, shaxs, guruh, jamiyat, nizo, nizoli vaziyat, konstruktiv, destruktiv

Ключевые слова

Конфликт, конфликт, личность, группа, общество, спор., конфликтная ситуация, конструктивная, деструктивная

Key words

Conflict, conflict, individual, group, society, dispute, conflict situation, constructive, destructive

Bugungi kunda hayot konfliktlarga to‘la Insonning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har qanday joyda, har qanday vaziyatda to‘qnash kelish mumkin. Konfliktlar uyda, maktabda, ko‘chada, o‘quvchilar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbariyati orasida, jamoa a’zolari o‘rtasida sodir bollishi mumkin.

Konflikt bu – ikki yoki undan ko‘p tarafning fikr, g’oya yoki manfaatlari to’qnashganda, qarama – qarshi holatida vujudga keluvchi hodisa. Konfliktning yagona yechimi bu kelishuv hisoblanadi va u u yoki bu tomonga zarar keltiruvchi yoki adolatli bo‘lishi mumkin. Konflikt vaziyat ishtirokchilari masshtabidan qat’iy nazar o‘zining tabiiy syujetini va harakterini yo’qotmaydi.

Konflikt (lot. conflictue – ixtilof, to‘qnashish) – 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to‘qnashuvi; 2) adabiyot va san’atda – badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o‘zaro to‘qnashishi, ixtilofi. Konflikt epik asarlarga nisbatan qo’llanadi, dedektiv romanlarda esa u kolliziya, kechinma, fikr oqimi tarzida namoyon bo‘ladi. Konfliktning 3 xil ko‘rinishi mayjud: asar qahramonlarining birbirlari bilan to‘qnashuvi, kurashi; shartsharoit, muhit bilan to‘qnashuv; o‘z-o‘zi bilan ichki kurash. Drama konfliktni harakatni rivojlantiruvchi, keskinlashtiruvchi xususiyatga ega. Konfliktda yozuvchining dunyoqarashi, voqelikni, hayotni, dunyoni va insonni qanday idrok etishi va tushunishi namoyon bo‘ladi. Konfliktlar o‘rtasidagi hozirgi zamon falsafasidagi asosiy mavzulardan biridir. Turli davrlar va maktablar olimlari hayotning turli sohalaridagi ziddiyatning mohiyatini, sabablarini va oqibatlarini tushunishga harakat qilishgan.

Konfliktlar klassifikatsiyasiga ko‘ra ma’lum turlarga ajraladi. Misol uchun, namoyon bo‘luvchi sohasi, ta’sir darajasi, ishtirokchilar turiga ko‘ra bo‘linadi.

Namoyon bo‘luvchi sohasiga ko‘ra: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy konfliktlarga;

Ta’sir darajasiga ko‘ra:

-Konstruktiv - bu jamiyat yoki konflikt ishtirokchilari uchun ijobjiy natijali holatdir. Bunda barcha taraflar manfaatlari hisobga olinib kompromissga kelinadi, yakunda rivojlanish va ijobjiy o‘zgarishlarga olib keladi;

-Destruktiv - bu konfliktning salbiy natijaga ega turi bo‘lib, bunda kuch orqali faqat bir tarafning manfaati qondirilishi, lekin yakunda ikkala taraf va jamiyat qulashiga, inqirozga olib keladi.

Ishtirokchi masshtabiga ko‘ra:

-insonning o‘zi bilan kechuvchi ichki hissiy konfliktlar, ikki yoki undan ortiq shaxs o‘rtasidagi, ma’lum guruuhlar o‘rtasidagi, davlatlar o‘rtasidagi yoki allianslar o‘rtasidagi konfliktlarga bo‘lish mumkin.

Konflikt tushunchasiga ikki prinsipial ta’rif: birinchisi - konfliktni keng ma’noda tushunishini toraytirib, konfliktlar faqat o‘zaro sotsial harakat (ta’sir)da yuzaga keladi deya hisoblash; ikkinchi ta’rif- konflikt mohiyatiga tegishli. Konflikt mohiyati faqat ziddiyat yuzaga kelishida, manfaatlari to‘qnashuvida emas, balki yuzaga kelgan ziddiyatni hal qilish usulida, o‘zaro sotsial ta’sir (harakat) subyektlarining qarama-qarshiligidagi. Konflikt mohiyati, umuman, konflikt subyektlari o‘zaro qarama-qarshiligidagi bo‘ladi. Tushunchaning to’liq ta’rifi: konflikt - o‘zaro ta’sir (harakat) jarayonida paydo bo‘ladigan jiddiy ziddiyatlarni hal qilishning eng keskin usuli bo‘lib, konflikt subyektlari qarama-qarshiligidan iborat, odatda, salbiy his-kechinmalar (emotsiyalar) bilan kechadi.

Bugungi kunda ham insonlar konflikt so’zini nizo yoki ziddiyat ma’nosida tushunadilar. Aslini olganda bu ularning tor fikrlaridir . Konflikt so’zi to‘qnashuv ma’nosida ko‘rayotgan bo‘lsak ya’ni ikki subektlar, guruuhlar, sinflar yoki jamiyatlarning bir biri bilan o‘zaro ish

yuzasidan yoki o‘zlarining shaxsiy fikrlarini almashishda bo‘lgan to’qnashuvini ham tushunishimiz kerak.

Ijtimoiy (sotsial) konflikt - ochiq qarama-qarshilik, ikki yo undan ortiq subyektlar - sotsial o‘zaro ta’sir ishtirokchilarining to’qnashuvi bo‘lib, buning sabablari sotsial konflikt ishtirokchilarining o‘zaro zid manfaatlari va qadriyatlaridir. Sotsial ziddiyatlaming o‘ta keskinlashgan holati, turli sotsial birliklar, sinflar, millatlar, davlatlar, turli sotsial guruhlar, sotsial institut kabilar manfaatlarining ular manfaatlari, maqsadlari, taraqqiyot tendensiyalarining qarama-qarshiligi yoki jiddiy farq qilishi tufayli kelib chiqadi. Sotsial subyektlaming obyektiv ravishda farqlangan manfaatlari, maqsadlari, taraqqiyot tendensiyalarining oshkora yoki yashirin kurashi, to’qnash kelishi, sotsial kuchlarning mayjud ijtimoiy tartibga qarshilik ko‘rsatish asnosida bevosita yoki bilvosita to’qnashuvi, yangi sotsial birdamlikka tomon tarixiy intilishning alohida shalklidir. Konfliktli ozaro ta’sir subyektlari o‘zaro zid bo‘lgan yoki bir-birini istisno etadigan qandaydir o‘z maqsadlarini ko‘zlagan vaziyat. Ijtimoiy konfliktlar konfliktologiyaning markaziy obyekti, ya’ni yadrosi hisoblanib, u esa shaxslararo konfliktlar hisoblanadi.

Ijtimoiy (sotsial) konflikt sabablari:

- 1) moddiy resurslar;
- 2) o‘ta muhim hayotiy ko‘rsatma (ustanovka)lar;
- 3) hokimiyat vakolatlari;
- 4) ijtimoiy (sotsial) tuzilmadagi maqom-vazifaga oid farqlar; .
- 5) shaxsga doir (emotsional-psixologik) farqlar va hokazo.

Konfliktga o‘zaro sotsial ta’sir (harakat)ning turlari sifatida uning subyektlari va ishtirokchilari bo‘lib alohida individlar, katta va kichik sotsial guruhlar va taslikilotlar keladilar. Konfliktli qarama-qarshilik - tomonlaming o‘zaro kurashi, ya’ni bir-biriga qarshi qaratilgan harakatlaridir. Sotsial konflikt asosida faqat sabablari o‘zaro tubdan zid bo‘lgan manfaat, ehtiyoj va qadriyatlar bo‘lgan ziddiyatlar yotadi. Bu kabi ziddiyatlar tomonlarning ochiqdan-ochiq kurashi real qarama-qarshilikka o’tib ketadi. Konfliktda to’qnashuvlarning kuch ishlatiladigan va kuch ishlatilmaydigan shakllari mayjud. Sotsial konflikt o‘z ichiga raqib faoliyatini to‘sinq bo‘layotgan yoki boshqa odam (guruh)larga zarar yetkazayotgan individ yoki guruh faolligini oladi.

Ijtimoiy nizolarning oqibatlari qanday?

Olimlar bu hodisani funksionalistik va sotsiologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqadilar. Birinchi holda, qarama-qarshilik aniq salbiy va quyidagi oqibatlarga olib keladi:

Jamiyatni beqarorlashtirish . Nazorat dastaklari endi ishlamaydi, jamiyatda betartiblik va oldindan aytib bo‘lmaydiganligi ustunlik qiladi.

Ijtimoiy mojaroning oqibatlari ishtirokchilar e’tiborini dushman ustidan g’alaba qozonishni o‘z ichiga olgan muayyan maqsadlarga qaratishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, boshqa barcha muammolar fonga o’tadi.

Raqib bilan keyingi do’stona munosabatlarga umidni yo’qotish.

Qarama-qarshilik ishtirokchilari jamiyatdan chetlashtiriladi, ular norozilikni his qilishadi va hokazo.

Qarama-qarshilikni sotsiologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqsak, bu hodisaning ijobjiy tomonlari ham bor deb hisoblang:

Ishning ijobjiy natijasiga qiziqish bilan odamlarning yig‘ilishi va ular o‘rtasida o‘zaro tushunishni kuchaytirish mavjud. Har bir inson sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z ishtirokini his qiladi va ijtimoiy mojaroning tinch oqibatlarga olib kelishi uchun hamma narsani qiladi.

Mavjud tuzilmalar yangilanadi, yangi tuzilmalar va muassasalar shakllantiriladi. Yangi paydo bo‘lgan guruhlarda nisbiy barqarorlikni kafolatlaydigan manfaatlarning ma‘lum bir muvozanati yaratiladi.

Boshqariladigan mojaro ishtirokchilarni yanada rag‘batlanadir. Ular yangi g‘oyalar va yechimlarni ishlab chiqadilar, ya’ni “o‘sadi” va rivojlanadi.

Ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilish usullari

Qarama-qarshilikdan qochish. Ya’ni, ishtirokchilardan biri “sahnani” jismoniy yoki psixologik jihatdan tark etadi, ammo konfliktli vaziyatning o‘zi saqlanib qoladi, chunki uni keltirib chiqargan sabab bartaraf etilmaydi.

Muzokaralar. Ikkala tomon ham umumiyl til va hamkorlik yo‘lini topishga harakat qilmoqda.

Vositachilar. Ijtimoiy nizolarni hal qilish yo’llari vositachilarni jalb qilishni o‘z ichiga oladi. Uning rolini ham tashkilot, ham mavjud imkoniyatlar va tajriba tufayli uning ishtirokisiz amalga oshirish mumkin bo‘lmagan ishni qiladigan shaxs o‘ynashi mumkin.

Kechiktirish. Darhaqiqat, raqiblardan biri bir muncha vaqt o‘z pozitsiyalaridan voz kechib, kuch toplashni xohlaydi va yana ijtimoiy mojaroga kirishadi, yo‘qolgan narsalarni qaytarib olishga harakat qiladi.

Hakamlik sudiga murojaat qilish. Shu bilan birga, qarama-qarshilik qonun va huquq normalariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak konflikt tushunchasi jamiyatda toki inson paydo bo‘lgandan buyon mavjud. Konflikt tushunchasiga turli davrlarda turlicha qaralgan Romantizm davrida voqelik, muhit, shart-sharoit bilan ideal o‘rtasida, yaxshilik bilan yomonlik, ruhiy erkinlik bilan turmush tashvishlari o‘rtasidagi ziddiyat hukmronlik qilgan, realizm tantana qilgan davrda inson mohiyati, uning istagi, imkoniyati bilan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit zaminida konflikt yuzaga kelgan. Shunday boqiy mavzular borki (masalan, saxiylik va xasislik, vafodorlik va bevafolik, tiriklik va o‘lim), bularda konflikt har bir davrning ma’naviy, ruhiy talab va ehtiyojlaridan kelib talqin qilinadi. Sho‘rolar davrida — sotsialistik realizm metodi hukmronlik qilgan davrda konflikt zaminiga ijtimoiy-sinfiy antagonizm qo‘yilgan va bu ziddiyatning inqilobiy yo‘l bilan yechilishi talab qilingan, individual axloq bilan jamoa ongi o‘rtasidagi, xususiy mulkchilik ruhiyati bilan jamoat, xalq manfaati o‘rtasidagi kurash tarzida qo‘yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA TOSHKENT «DONISHM AND ZIYOSI» 2020

2. Axmedova M.T., Shayzakova N.S. Nizolaming yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ulaming xislatlari. Maktab va hayot. - T., 2014r 2-son.
3. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qoilanma. - Adabiyot uchqunlari, 2017 yil